

MURABAHA: ISLOM MOLIYASINING ENG OMMOBOP MAHSULOTI

Matniyazov Omonboy Quryazovich
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
omonboymatniyazov@gmail.com

Annotatsiya

Murabaha – bu Islom moliyasining eng keng tarqalgan moliyaviy mahsuloti bo‘lib, islam moliyasi instituti tomonidan tovar yoki aktivni xaridor nomidan sotib olib, tannarx ustiga ustama narx bilan xaridorga sotishdir. Ushbu maqolada Murabaha shartnomasining mohiyati, uning Shariat talablariga muvofiqligi, hisob yuritish jarayoni haqida ko’rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Murobaha, Islom moliyasi, O‘zbekiston, Markaziy bank qarori, Tannarx, Ustama (foyda), Foiz.

Kirish

Bugungi zamonaviy dunyoda va xususan O‘zbekistonda an’naviy moliya tizimi instrumentlariga muqobil tizimlar va ularning instrumentlariga ehtiyoj sezilmoxda. Ushbu talabni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024 yil 19 iyuldagagi 23/4 – sonli “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko’rsatish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida ” gi Qarori e’lon qilindi. Ushbu Qaror bilan islomiy moliyalashtirishga oid dastlabki xuquqiy bazalar yoritilgan bo‘lib, bu jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi.

Islom moliyasi tizimidagi murobaha shartnomasidan, bugungi kunda musulmon va musulmon bo’lmagan aholi o’rtasida juda keng foydalanilmoqda. Xususan, yuqorida tilga olingen Qarorda ham murobaha shartnomasi bo'yicha tarif berib undan foydalanish haqida dastlabki tushunchalar berilgan.

Murobaha- sotuvchi va xaridor o’rtasida tuziladigan savdo shartnomasi bo‘lib, unda sotuvchi (mol yetkazib beruvchi) tovar tannarxini va qancha foyda (ustama) qo’yanligini bildirib sotishini anglatadi. Bunda agar xaridorga tovar narxi ma’qul kelsa, sotib olish uchun savdo bitimiga kirishadi ya’ni iyjob (savdo taklifi) va qabul yuzaga chiqadi.

Murabaha asosiy xususiyatlari

Islom moliyasida murobaha shartnomasining amalga oshishining talablari bor:

- 1.Tovar savdo jarayonida mavjud bo’lishi kerak.
- 2.Tovar savdo jarayonida sotuvchining mulkida bo’lishi kerak.
- 3.Tovar sotilayotgan vaqtida sotuvchining jismoniy yoki konstruktiv egaligida bo’lishi kerak.



4. Savdo darhol va shartsiz amalga oshirilishi kerak.
5. Tovar qiymatga ega bo'lgan mulk bo'lishi kerak.
6. Sotilayotgan Tovar cho'chqa aroq singari faqat harom maqsadda ishlataladigan narsa bo'lmasligi kerak.
7. Xaridor aynan qaysi tovarni sotib olayotganini aniq bilishi lozim.
8. Sotilgan tovarni xaridorga yetkazib berish aniq kelishilgan bo'lishi darkor.
9. Tovar narhi aniq bo'lishi kerak.
10. Savdo hech qanday shartlarsiz amalga oshirilishi kerak (Muftiy Muhammad Taqi Usmoniy, 2023).

Murabaha shartnomasining tuzilishi

Murabaha shartnomasi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. **Buyurtma berish** – Xaridor islom moliyasi instituti (IMI)ga o'ziga zarur bo'lgan tovarni sotib olish bo'yicha murojaat qiladi.
2. **IMI mahsulotni xarid qilishi** – IMI xaridor tomonidan talab qilingan tovarni sotib oladi va egaligiga oladi.
3. **Xaridorga sotish** – IMI tovarni xaridorga oldindan kelishilgandek tovar tannarx va uning ustiga ustama qo'ygan holda sotadi.
4. **To'lovni amalga oshirish** – Xaridor IMI ga to'lovni to'liq yoki o'zaro kelishilgan muddat davomida amalga oshiradi.

Murabaha va an'anaviy kreditlashning farqlari

Xususiyat	Murabaha	An'anaviy kredit
Asosiy tamoyil	Tovar savdosi amalga oshirilishi	Foiz asosidagi qarz beradi
Bankning roli	Tovarni sotib olib, unga egalik qilib keyin xaridorga sotadi	Pul kreditini ajratadi
Foyda mexanizmi	Tannarx + ustama	Foiz hisoblanadi
Spekulyatsiya	Spekulyatsiyaga yo'l qo'yilmaydi, real Moliya vositalari aktivga asoslanadi	vositalari qo'llagan holda

Murabaha shartnomasi hisobining yuritilishi

Murabaha shartnomasi hisobi tegishlilik bo'yicha belgilangan milliy yoki xalqaro standartlar asosida yuritiladi. Murabaha shartnomasining umumiy ko'rishdagi hisoboti quyidagicha bo'ladi:

1. **IMI balansida aks ettirish** – IMI tomonidan sotib olingan tovar (aktiv)ni o'z balansida qayd etadi.

2. **Daromad tan olish** – IMI foydani o’zaro tuzilgan shartnomalariga muvofiq tan oladi, foizli kreditlardan farqli o’laroq, bu ustama (foyda) oldindan kelishilgan bo‘ladi.
3. **To‘lov grafigi** – Xaridor to‘lojni belgilangan muddatda amalga oshirishi uchun maxsus hisob nazorati yuritiladi.

Murabaha amaliyotdagi qo‘llanilishi

Murabaha shartnomasi dunyoning ko‘plab davlatlarida Islomiy moliya institutlari tomonidan quyidagi sohalarda asosan keng qo‘llaniladi:

- **Savdo va ishlab chiqarish** – Korxonalar kerakli xomashyo yoki asbob- uskunalarni sotib olish uchun foydalanadi.
- **Ko‘chmas mulk** – Mijozlarga uy yoki tijorat binolarini sotib olish uchun moliyaviy yechim sifatida qo‘llaniladi.
- **Transport va logistika** – Avtomobillar va texnika vositalarini sotib olishda ishlatiladi va hokozo.

Murabaha shartnomasi hisobini amalga oshirishdagi muammolar va ularni takomillashtirish yo‘llari

Murabaha shartnomasi hisobini amalga oshirishda ayrim qiyinchiliklar mavjud va ular quyidagilar:

1. **Hisobotdagi farqlar** – Murabaha shartnomalari bo‘yicha hisobni qo‘llashda Xalqaro moliyaviy hisobot standardlari (IFRS) Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) o‘rtasida tafovutlarning mavjud ekanligi.
2. **Shaffoflik masalasi** – Ayrim holatlarda IMI larning qo‘shilgan foyda miqdorini to‘liq oshkor qilmasligi kuzatiladi.
3. **Risk va defolt muammosi** – Mijoz to‘lojni bajarmagan holatlarda qanday choralar ko‘rilishi aniq belgilanishi kerak va boshqalar.

Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- Murabaha shartnomalari bo‘yicha xalqaro standartlarni maksimal darajada moslashtirish.
- Murobaha shartnomasi buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va raqamlashtirish.
- Shaffoflikni oshirish uchun hujjatlashtirish jarayonini takomillashtirish ya’ni zamonaviy dasturiy ta’mintardan foydalanish zarur.

Xulosa

Murabaha shartnomasi islom moliyasi amaliyotlarining muhim qismlardan biri bo‘lib, riboden xoli, shaffof va real tovar (aktiv)lar asosida amalga oshiriladi. Bu moliyaviy vosita hozirda banklar, korporatsiyalar, mikromoliya tashkilotlari tomonidan keng foydalinilmoqda. Biroq, uning hisobini yuritish tizimida ayrim

muammolar mavjud bo‘lib, ularni xalqaro standartlar bilan moslashtirish va eng so’nggi texnologiya yutuqlardan foqdalangan holda shaffoflikni oshirish orqali hal qilish mumkin. Murabaha shartnomasi hisobini to’g’ri va shaffof yuritish tizimini takomillashtirish islom moliyasining kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun muhim bosqichlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. AAOIFI Shariah Standards, Bahrain
2. International Financial Reporting Standards (IFRS).
3. Muftiy Muhammad Taqi Usmoniy, 2023. "ISLOM MOLIYASIGA KIRISH", "Azon kitoblari" nashriyoti.
4. <https://lex.uz/uz> (O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi)